

## ERKIN VOHIDOV ASARLARI LINGVOPOETIKASI

Saidova Gulchehra

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Erkin Vohidov she'rlarining leksik-grammatik xususiyatlari haqida fikr yuritilib, lingvopoetik jihatdan qisqacha tahlil qilingan.*

**Kalit so'zları:** lingvopoetika, leksik poetika, fanetik poetika, antonim, metafora, metonimiya.

### LINGVOPOETICS OF ERKIN VOHIDOV'S WORKS

#### ABSTRACT

*This article discusses the lexical and grammatical features of Erkin Vohidov's poems and gives a brief lingvopoetic analysis.*

**Keywords:** lingvopoetics, lexical poetics, phonetic poetics, antonyms, metaphors, metonymy.

#### KIRISH

Lingvopoetika sohasi ham til, ham adabiyot fanini o'zida birlashtirgan sohalardan biridir. Bir so'z bilan aytganda, badiiy ijod namunalarimizning til xususiyatlarini o'zida jamlagan o'ziga xos soha.

Badiiy nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. Ekspressivlikning namoyon bo'lish shakllarini teran tadqiq qilgan tilshunos Adham Abdullayev «sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarining maxsus qo'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq» kabi uslubiy figuralar «fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishi»ga xizmat qilishini ta'kidlaydi.<sup>1</sup>

#### MUHOKAMA VA NATIJALAR

1. Qaro qoshing, qalam qoshing,  
Qiyiq qayrilma qoshing, qiz.  
Qilur qatlima qasd qayrab —  
Qilich qotil qaroshing, qiz.  
Qafasda qalb qushin qiynab,  
Qanot qoqmoqqa qo`ymaysan.  
Qarab qo`ygil qiyo,

<sup>1</sup> Abdullayeva A.O'zbek tili eksperivlikning ifodalanishi.- Toshlent:Fan , 1983.88b

Qalbimni qizdirsin quyoshing, qiz. (Alliteratsiya)

2. Bog'ingdan gul termagan kim bor?  
Sen haqingda yozib to'rt satr,  
Sirdoshiga asta ko'rsatib,  
Qo'shni qizga bermagan kim bor? (**Ritorik so'roq**)
  
3. Alqissa juda qadim, jaholatli zamonda,  
Bir donishmand, ulug' hakim , o'tgan ekan jahonda.  
U kun bu'yi giyoh terib, kezib bog'u biyobon,  
Odamlarga shifo berib, yashar ekan shodumon. (**Inversiya**)

Poetik leksikologiya yo'naliشining tadqiqot ko'lami juda keng qamrovlidir.U o'z doirasida sinonim, omonim, antonim so'zlarni, ma'no ko'chishlarining barcha jabhalarini(metafora, metonimiya,sindekdoxa, vazifadoshlik, kinoya ), chegaralangan leksikalarni(dialektizmlar, istorizmlar, arxaizmlar...) tahlil qiladi.

Vogelikdagi narsa-hodisalar orasidagi bizga ko'rinnagan, biroq san'atkorona o'tkir nigoh bilan ilg'angan o'xshashlik, aloqadorlik asosidagi ko'chimlar o'quvchini hayratga soladi, unga zavq bag'ishlaydi. Badiiy asarda eng ko'p qo'llanuvchi ko'chim turlaridan biri metaforadir. Metafora usulidagi ma 'no ko'chishida narsa-hodisalar orasidagi o'xshashlikka asoslaniladi. Tabiatan, metaforani yashirin o'xshatish deb atash mumkin.

Shoirimiz ijodida betakror yashirin o'xshatishlar(metaforalar) bisyordir:

1. Ufqlarga qo'yib guldasta,  
Tog' ortidan ko'tardi-da bosh,  
Pastga boqdi cho'qqidan asta  
Oltin qalam tutgan bir naqqosh.
  
2. Subhidam oftobi ko'kning  
Gumbazida yondi, yo  
Yondi bu firuza gumbaz  
Subhidam oftobida.
  
3. Tun bilan yig'labdi bulbul  
G'uncha hajri dog'ida.

Ko'z yoshi shabnam bo'lib  
Qolmish uning yaprog'ida.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Qahramoni, sevilmlı shoirimiz Erkin Vohidov ijodini tahlil qilish jarayonida ijod tilining betakrorligi, lingvopoetik tadqiq asoslarining barcha yo'nalişlarini o'zida ko'rishimiz mumkin.

## REFERENCES

1. Erkin Vohidov. Ishq savdosi.
2. Abdullayeva A.O'zbek tilining eksperrivlikning ifodalaniishi
3. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunosliknazariyasi.-Toshkent: Fan.2008.-B.152
4. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish.- Toshkent: ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI XALQ MEROSI NASHRIYOTI 2004
5. Mustafayev, U. U. (2022). OLIY TA'LIMDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 614-621.
6. Mustafayev, U. U., & Mustafayeva, S. U. (2021). REFORMING THE TEACHING OF PHILOSOPHICAL SCIENCES IN THE PERIOD OF THE FORMATION OF THE THIRD RENAISSANCE THE NEED FOR A NEW UZBEKISTAN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 639-645.
7. <https://uz.m.wikipedia.org>